ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva

Mas’ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san’at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Adabiyotshunoslik

CONTENT

Linguistics

Literature

ISSN 2181-922X 6—39

LINGVISTIKA
LINGUSTICS

Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemming masalasi (turk, uyg‘ur, o‘zbek tillari misolida)

Botir Elov[1],
Shahlo Hamroyeva[2],
Oqila Abdullayeva[3],
Zilola Husainova[4],
Nizomaddin Xudayberganov[5]

Abstrakt

Agglutinativ tillarda mumkin bo‘lgan so‘z shakllari soni nazariy jihatdan cheksiz hisoblanadi. Bu o‘z navbatida agglutinativ tillarda lug‘atdan tashqari (out-of-vocabulary, OOV) so‘zlarni POS teglash (part-of-speech) muammosini yuzaga keltiradi. Agglutinativ tillarda o‘zak va qo‘shimchalarni birlashtirib so‘z hosil qilinadi. O‘zakka qo‘shimchalar qo‘shilganda fonetik uyg‘unlik va disgarmoniya yuzaga kelgani uchun

[1]*Elov Botir Boltayevich* – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: elov@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0001-5032-6648
[2]*Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna* – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0002-5429-4708
[3]*Abdullayeva Oqila Xolmo‘minovna* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: abdullayeva.oqila@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0002-2524-4832
[4]*Husainova Zilola Yuldashevna* – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: xusainovazilola@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0003-4357-7515
[5] *Xudayberganov Nizomaddin Uktamboy o‘g‘li* – o‘qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: nizomaddin@navoiy-uni.uz
ORCID: 0000-0002-6213-3015
Iqtibos uchun: Elov, B.B., Hamroyeva, Sh.M., Abdullayeva, O.X., Husainova, Z.Y., Xudoyberganov, N.U. 2023. “Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemming masalasi (turk, uyg‘ur, o‘zbek tillari misolida)”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2: 6–39.

ham fonetik, ham morfologik o‘zgarishlarni tahlil qilish zarur.

Ko‘pgina NLP vazifalarni hal qilishda so‘z shakllarini ularni o‘zakkacha qisqartirish (stemlash)ga to‘g‘ri keladi. So‘zdan barcha flektiv affikslarni olib tashlash va so‘zning qolgan qismini lemmatizatsiya qilish tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)ning muhim vazifalaridan biri hisoblanib, ushbu jarayon **stemming** deb yuritiladi. Stemming jarayoni axborot qidirish (IR, Information Retrieval) tizimlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *nutq qismlarini belgilash, POS teglash, stemming, axborot qidirish, IR, stemming algoritmlari*.

Kirish

Axborot qidirish tizimlarida foydalanuvchi so‘roviga mos natijani qaytarish tezligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Buni amalga oshirishning eng oson va qulay usuli stemming jarayonidir. NLPda so‘zning turli morfologik variantlarini ularning umumiy shakl (o‘zak, stem)ini aniqlaydigan metod **stemming algoritmi** deyiladi [Paice, 1994]. Axborot qidiruv tizimlarida o‘zakni aniqlash uchun uning suffiks va prefiks (qo‘shimcha)larini olib tashlash lozim [Anjali, Jivani, 2011].

POS teglash – berilgan gapdagi har bir so‘zshaklga uning turkum (*ot, fe’l, sifat, son, ravish* yoki *olmosh)*ga mansubligini belgilash (teglash) vazifasidir. POS teglash tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP)ning asosiy vazifalaridan bo‘lib, pipeline konveyerining muhim bosqichi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Matnga boshlang‘ich ishlov berish bosqichlari.

Mashina tarjimasi, matnni umumlashtirish, savol-javob va hissiyotlarni tahlil qilish kabi NLP ilovalari uchun POS teglash muhim qadam hisoblanadi. Masalan, “olma” so‘zini boshqa tilga tarjima qilish uning POS tegidan foydalaniladi. “Olma” (apple) ot so‘z turkumiga mansub bo‘lsa predmet bo‘ladi, “ol-ma” (don’t take) fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lsa, u harakatni bildiradi.

POS teglash lug‘at asosida yoki lug‘atsiz amalga oshirilishi mumkin. POS teglash bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati [Gao, Johnson, 2008; Goldwater, Griffiths, 2007; van Gael, Vlachos, 2009] so‘zlarga asoslangan (word-based) bo‘lib,

so‘zlarning morfologik segmentatsiyasini (morphological segmentation) amalga oshirmaydi.

Agglutinativ tillarning ba‘zilarida POS teglash jarayonini amalga oshirish uchun so‘zlarning stemlaridan foydalaniladi [Dincer, Karaog’lan, 2003]. O‘zbek, turk va uyg‘ur tillaridagi so‘zlar va uning stemi turli POS tegga mansub bo‘lishi mumkin.

1-jadval. Agglutinativ tillaridagi so‘zshaklning lemmasi, stemi va POS tegi.

№	so‘z	lemma	POS	Stem	POS	Root	POS
O'zbek tili							
1	muzladi	muzlamoq	VB	muz	N	muz	N
2	issiqroq	issiq	JJ	isi	VB	isi	VB
3	sodda-lashtiriladi	sodda-lashtirmoq	VB	sodda	JJ	sodda	JJ
4	ixtiyoriy	ixtiyoriy	JJ	ixtiyor	N	ixtiyor	N
5	qo‘llaniladi-gan	qo‘llamoq	VB	qo‘l	N	qo‘l	N
6	yo‘lakda	yo‘lak	N	yo‘l	N	yo‘l	N
7	qishlog‘im	qishloq	N	qishlog‘	?	qishloq	N
Turk tili							
7	yetkili	yetkili	ADJ	yetkili	ADJ	yetki	N
8	kurullarim-izla	kurul	N	kurul	N	kurul	N
9	teşkilatlari-mizla	teşkilat	N	teşkilat	N	teşkil	N
10	seçimlere	seçim	N	seçim	N	seç	VB
11	futbolcularin	futbolcu	N	futbol-cu	N	futbol	N
12	kullandi	kullanmak	F	kulla	F	kulla	F
13	bilgi	bilgi	N	bilgi	N	bil	F
Uyg'ur tili							
14	tarazichi	tarazichi	N	tarazi-chi	N	tarazi	N
15	yashaptu	yashamaq	VB	yasha	VB	yash	N
16	yegizligi	yegizlik	N	yegizlig	N	yegiz	VB
17	og’urluqqa	og’urluq	N	og‘ur-luq	N	og‘ur	N
18	chyshkən-ligini	chyshkənliq	N	chysh-kənlig	N	chysh	?

Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemmingni amalga oshirish uchun ba‘zi terminlar izohini keltiramiz:

O‘zak (root) – so‘zning asl ma‘nosini bildirib, boshqa ma‘noli qismlarga bo‘linmaydigan, mustaqil holda leksik ma‘no bildiradigan eng kichik qism. So‘zga turlicha affikslar qo‘shilib kelganda ham, o‘zakning ma‘nosi yo‘qolmaydi, undan yasalgan so‘zlarning ma‘nosi ana shu ma‘no bilan bog‘langan bo‘ladi. Shuningdek, o‘zak boshqa ma‘noviy qism, ya‘ni morfemaga bo‘linmaydigan qism.

Lemma (leksema) – faqat o‘zakdan yoki o‘zak+so‘z yasovchi qo‘shimcha shaklidan iborat bo‘ladi. **Leksema** (yun. lexis – so‘z, ifoda) – til qurilishining leksik ma‘no anglatuvchi lug‘aviy birligi. Leksema bildiradigan ma‘no so‘zning material qismi: ma‘lum tovush kompleksini ma‘lum obyektiv voqelikka bog‘lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarija.

Stem – so‘zshaklning qo‘shimchalarini kesib tashlashdan hosil bo‘luvchi qism bo‘lib, ba‘zi hollarda ma‘no anglatmasligi mumkin. Shuningdek, stem so‘zning morfologik o‘zagi bilan aynan mos bo‘lmasligi yoki mos tushishi mumkin.

Turk va uyg‘ur tillarida stemming jarayoniga quyidagicha ta‘rif berilgan:

Stemming (turk va uyg‘ur) – bu so‘zga qo‘shilgan *flektiv* qo‘shimchalarni olib tashlash orqali uning o‘zagigacha qisqartirish vazifasidir. Quyidagi 2-jadvalda o‘zbek, turk hamda uyg‘ur tillaridagi so‘zlar, ularning stemi va o‘zagiga qo‘shilgan so‘z yasovchi hamda shakl yasovchi qo‘shimchalarning namunalari keltirilgan.

2-jadval. Agglyutinativ tillaridagi so‘zshaklning stemi va qo‘shimchalari.

Til	**So‘zshakl**	**Stem**	**So‘z yasovchi qo‘shimcha**	**Shakl yasovchi qo‘shimcha**
UZ	ko‘zlagan = ko‘z + la + gan tinchimiz = tin + ch + imiz bilimdon = bil + im + don birlik = bir + lik moyladim = moy + la + di	ko‘z tin bil bir moy	la ch im lik la	gan imiz don bir di +m
TR	oyuncularin = oyun+cu+lar+in futbolcularin = fut-bol+cu+lar+in karşilaşmalar = karşi+laş+ma+lar değerlendirilip = değer+len+dir+il+ip açikladi = açik+la+di	oyun futbol karşi değer açik	cu cu laş len la	lar+in lar+in ma+lar dir+il+ip di

UY	tarazichi = tarazi+chi yashaptu = yasha+p+tu yegizligi = yegiz+lig+i og'urluqqa = og'ur+luq+qa chyshkənligini = chyshkən+lig+i+ni	tarazi yash yegiz og'ur chyshkən	chi a lig luq lig	- p+tu i qa i+ni

Biroq o'zbek tili uchun stemming jarayoni quyidagicha ta'riflanadi:

Stemming (o'zbek) – bu so'zga qo'shilgan *derivatsion* va *flektiv* qo'shimchalarni olib tashlash orqali uning o'zagigacha qisqartirish vazifasidir.

O'zbek, turk va uyg'ur tillarida gaplar alohida so'zlardan tashkil topadi. Morfologik jihatdan bu uch tildagi so'zlar o'zakka ba'zi qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilinadi. Bu jarayonda so'zda fonetik o'zgarishlar (phonetic harmony) yuzaga kelishi mumkin va bu bevosita matnda o'z aksini topadi. O'zakning o'zi ham so'zning o'ziga xos ma'nosini ifodalovchi so'z bo'lishi mumkin. Affikslar gapda muhim rol o'ynasa-da, mustaqil ma'noga ega emas.

Affikslar *so'z yasovchi (derivational suffixes)* va *shakl yasovchi (inflectional suffixes)* turga ajratiladi [Hojiyev 2005]. Turk va uyg'ur tillarida so'z yasovchi qo'shimchalar yangi stem hosil qilishi mumkin (2-rasm). Shakl yasovchi qo'shimchalar esa so'zning faqat grammatik vazifasini o'zgartiradi. So'z yasovchi qo'shimchalarni o'zakka qo'shish orqali so'zda semantik o'zgarish yuzaga kelishi mumkin. Shakl yasovchi qo'shimchalar so'zda sintaktik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. O'zakka avval so'z yasovchi qo'shimchalar, so'ngra shakl yasovchi qo'shimchalar biriktiriladi. Biroq o'zakka to'g'ridan-to'g'ri shakl yasovchi qo'shimchalar biriktirilishi ham mumkin.



2-rasm. Turk va uyg'ur tillaridagi so'zning umumiy morfologik tuzilishi.

Ingliz tili kabi ba'zi flektiv tillarda bu atributlar **predloglar** kabi alohida so'zlar bilan belgilanadi va tabiatan juda oddiy [Porter 2006]. Ingliz tilida so'z cheklangan miqdordagi qo'shimchalarni (odatda bitta) olishi mumkin. Shu sababli, ingliz tili uchun aso-

siy stemming algoritmlari juda oddiy. Biroq, agglutinativ tillarda bir ildizdan son-sanoqsiz leksik shakllarining hosil bo‘lishi, tabiiy tilni tushunishda muhim va murakkab masala hisoblanadi.

Turk va uyg‘ur tillarida ildizlar so‘z yasovchi qo‘shimchalari bilan birgalikda stem (o‘zak)larga aylanadi. Agglutinativ tillarda shakl yasovchi qo‘shimchalar odatda so‘z yasovchi qo‘shimchalardan keyin keladi. Biroq ba‘zi hollarda ***-gil, -siz*** kabi shakl yasovchi qo‘shimchalar avval kelishi mumkin.

O‘zbek tilida so‘z yasovchidan oldin lug‘aviy shakl yasovchi kelishiga misol sifatida ***o‘chirg‘ich, muzlatkich*** so‘zi misol bo‘la oladi.

– o‘chirg‘ich = ***o‘ch*** *(o‘zak)+ir (lug‘aviy shakl yasovchi) +g‘ich (so‘z yasovchi);*

– muzlatkich = ***muz*** *(o‘zak) +la (so‘z yasovchi) +t (lug‘aviy shakl yasovchi) +kich (so‘z yasovchi).*

Turk tilida o‘zakdan keyin so‘z yasovchi+lug‘aviy shakl yasovchi+so‘z yasovchi shakli uchraydi:

*– baş+la+n+****gıç;***

Shuningdek, o‘zak+sintaktik shakl yasovchi+so‘z yasovchi shakli ham uchraydi:

– aşağıdaki (sorular), aşağıdakiler, sınıftaki (öğrenciler), sınıftakiler, raftaki (eşyalar), yuvadaki [www.turkedebiyati].

Uyg‘ur tilida ham bu holat, ya‘ni tarkibi o‘zak + so‘z yasovchi + shakl yasovchi tartibiga mos tushmaydigan, ya‘ni o‘zak + shakl yasovchi + so‘z yasovchi tartibida bo‘ladigan so‘zlar uchraydi:

– oqu+t-quchi; qolla+n-ma [www.tilachar.ru].

So‘zga qo‘shila oladigan qo‘shimchalar soni va ularning ko‘p sonli birikmalari agglutinativ tillarda o‘zakni aniqlash jarayonini murakkab muammoga aylantiradi. Chunki ko‘pchilik agglutinativ tillarda qo‘shimchalar kombinatsiyasi murakkab so‘z shakllarini hosil qiladi. Yangi so‘z yasovchi yoki so‘z shakllarini hosil qiluvchi qo‘shimchalar soni bo‘yicha ko‘rsatkichlar ham har xil hisoblanadi. O‘zbek tilida 228 ta so‘z yasovchi, 69 ta lug‘aviy shakl hosil qiluvchi va 41 ta sintaktik shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar mavjudligi darsliklarda ko‘rsatiladi. Agar ularning variantlarini ham qo‘shsak, aslida bu son yana oshib ketadi [https://github.com/KhZilola/Python-Codes].

Turk tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar soni 24 ta, shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar soni 303 ta ekanligi manbalarda ko‘rsatiladi [https://en.wiktionary.org/wiki/Appendix:Turkish_suffixes]. Uyg‘ur tilida 11 ta so‘z yasovchi, 100 dan oshiq shakl hosil

qiluvchi qo‘shimchalar mavjud [https://en.wiktionary.org/wiki/Category:Uyghur_suffixes].

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko‘rinib turganidek, o‘zbek, turk va uyg‘ur tillarida stem va lemmaga qarash turlicha. O‘zbek tilida lemma tub yoki yasama so‘z shaklida bo‘ladi: *kitob, kitobxon, bilim, bilimdon*. Demak, o‘zbek tilida lemma lug‘atda mavjud leksemaga teng keladi. O‘zbek tilida o‘zakdosh (asosdosh) so‘zlar alohida-alohida lemma sanaladi.

O‘zbek tilida stemmingni amalga oshirish uchun so‘z-shakldagi o‘zakkacha bo‘lgan barcha qo‘shimchalar kesib tashlanadi. ***Maktab****+dosh+lar+imiz* so‘zshaklida so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimcha mavjud. O‘zbek tilida stemming jarayonida shu qo‘shimchalarning barchasi kesib tashlanadi:

So‘zshakl: ***maktab****+{dosh}+(lar)+(imiz)*

Lemma: ***maktabdosh***

Stem: ***maktab***

O‘zak (root): ***maktab***

Turk tilida stemlash jarayonida so‘zshakldagi faqat sintaktik va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar kesiladi, ammo so‘z yasovchilar qoldiriladi. Masalan:

So‘zshakl: ***seçim****+(ler)+(e)*

Stem: ***seçim***

Ko‘rinadiki, turk tilida stem tarkibida so‘z yasovchi qo‘shimcha qoladi, o‘zak bilan stemning farqi so‘z yasovchi qo‘shimchaning mavjudligidadir.

So‘zshakl: ***seçim+(****ler)+(e)*

Lemma: ***seçim***

Stem: ***seçim***

O‘zak (root): ***seç***

Uyg‘ur tilida stemlash jarayonida so‘zshakldagi sintaktik va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar kesiladi, ammo so‘z yasovchilar qoldiriladi.

oqutquchi

So‘zshakl: ***oqut*** *+ (qu) + (chi)*

Lemma: ***oqut***

Stem: ***oqut***

O‘zak (root): ***o***

Stemming jarayonidagi muammolar

Stemming jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

1) o‘zak va qo‘shimchaning bitta o‘zak bilan omonim bo‘lishi;
2) so‘zning tovush o‘zgarishiga uchrashi;
3) neologizm va NERlarni stemmlash.

O‘zak va qo‘shimchaning bitta o‘zak bilan omonim bo‘lishi

Bugungi kunda tabiiy tildagi so‘zlar uchun turli stemming usullari ishlab chiqilgan. Zamonaviy stemming algoritmlari hech qanday sintaktik ma‘lumotlardan foydalanmagan holda yaratilmoqda [Polus, Abbas 2021; Memon, Mallah, Shaikh 2020; Khyani 2021].

Shuningdek, an’anaviy stemming usul (algoritm)lari – bu qo‘shimchalar va ba‘zi morfologik qoidalarga asoslangan bo‘lib, stemming jarayoni natijasida stemdagi noaniqlik yuzaga kelishi mumkin. Ko‘p ma‘noli o‘zakni aniqlash ancha murakkab jarayon bo‘lib, stemming jarayonida gap darajasidagi semantik ma‘lumotlar e’tiborga olinmaydi. Ba‘zida so‘zning POS tegi uning o‘zagining POS tegi bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin.

O‘zbek tilida so‘z yasovchi va shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar o‘rtasida omonimiya hodisasi ham uchraydi. Bu esa stemming jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. Quyidagi 3-jadvalda omonim qo‘shimchalar ro‘yxatini ko‘rish mumkin:

3-jadval. So‘z yasovchi va shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar o‘rtasida omonimiya.

Shakl yasovchi qo‘shimcha	So‘z yasovchi qo‘shimcha
- ay (lug‘aviy shakl yas.) boray	kuchay (fe’l)
- gi (lug‘aviy shakl yas.) borgim	supurgi (ot), yozgi (sifat)
- da (sintaktik shakl yas.) uyda	undamoq (fe’l)
- i (sintaktik shakl yas.) do‘sti	jannati (sifat), boyi (fe’l)
- in (lug‘aviy shakl yas.) ko‘rin	ekin (ot), sog‘in (sifat)
- im (sintaktik shakl yas.) uyim	bilim (ot), ayrim (sifat)
- ir (lug‘aviy shakl yas.) o‘chir	gapir (fe’l)
- iq (lug‘aviy shakl yas.) siniqmoq	yo‘liq (fe’l), ochiq (sifat), chiziq (ot)
- y (lug‘aviy shakl yas.) o‘qiy	qoray (sifat)
- k (sintaktik shakl yas.) bordik	to‘shak (ot), chirik (sifat)
- ka (lug‘aviy shakl yas.) surka	iska (fe’l)
- kin ((lug‘aviy shakl yas.) to‘kkin	epkin (ot), keskin (sifat)
- la (lug‘aviy shakl yas.) quvla	so‘zla (fe’l)
- lab (lug‘aviy shakl yas.) yuzlab	haftalab (ravish)

- m (sintaktik shakl yas.) otam, ko‘rdim	to‘plam (ot)
- ma (lug‘aviy shakl yas.) gapirma	qatlama (ot), bo‘g‘ma (sifat)
- moq (lug‘aviy shakl yas.) ichmoq	quymoq (ot)
- sa (lug‘aviy shakl yas.) kelsa	suvsa (fe’l)
- siz (sintaktik shakl yas.) yozasiz	yuzsiz (sifat), to‘xtovsiz (ravish)
- xon (lug‘aviy shakl yas.) otaxon	kitobxon (ot)
- cha (lug‘aviy shakl yas.) qizcha	farg‘onacha (sifat), tushuncha (ot), erkakcha (ravish)
- chak (lug‘aviy shakl yas.) kelinchak	kuyunchak (sifat), belanchak (ot)
- chiq (lug‘aviy shakl yas.) qopchiq	sirpanchiq (sifat)
- choq (lug‘aviy shakl yas.) toychoq	o‘yinchoq (ot), maqtanchoq (sifat)
- qa (sintaktik shakl yas.)	
- qa (lug‘aviy shakl yas.) chayqa	qisqa (sifat)
- qin (lug‘aviy shakl yas.) boqqin	toshqin (ot), jo‘shqin (sifat)

4-jadval. Agglutinativ tillaridagi so‘zshaklning stemi va qo‘shimchalari.

Til	So‘zshakl	1-ma‘nosi	2-ma‘nosi
Turk	gelecek	keladi (will come)	kelajak (future)
Uyg‘ur	alma	ol+ma (don’t take)	olma (apple)
O‘zbek	quymoq	quy+moq (pour)	quymoq (panke)

O‘zbek tilidagi gaplarda stemdagi noaniqlikni quyidagi 3-rasmda ko‘rish mumkin:



3-rasm. O‘zbek tilidagi gaplarda stemdagi noaniqlik.

Turk tilida:
1-ma‘noda: Kış yine **gelecek**.
2-ma‘noda: **Gelecek** hakkında ne düşünüyorsunuz?
Uyg‘ur tilida:
1-ma‘noda: Qalamni qolunga **alma**.

2-ma‘noda: U bazardin **alma** setiwaldi.

O‘zbek tilida: (quymoq)

1-ma‘noda: Zarifa mehmonlarga choy **quymoqchi** bo‘ldi.

2-ma‘noda: Ertalab nonushtaga **quymoq** tayyorlandi.

Misol uchun, koyun (turkcha) so‘zini agar gapda fe’l sifatida kelsa **koy-(mak)** ko‘rinishida stemmlash mumkin. Agar gapda ot sifatida kelsa **koyun (qo‘y)** ko‘rinishida stemmlash lozim. POS teglash jarayonida turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ulardan biri POS teglashdagi noaniqlikdir. So‘zlar gapdagi sintaktik roliga qarab turli so‘z turkumlarga mansub bo‘lishi mumkin. So‘zning aniq/to‘g‘ri POS tegi uning o‘zagini ham topishga yordam beradi.

Misol uchun,

1. Aydınlık gelecek günler bizi bekliyor. (Kelajakda bizni yorqin kunlar kutmoqda).

2. Ahmet birazdan gelecek. (Ahmad tez orada keladi);

Birinchi gapdagi *gelecek* – *sifatdosh*, o‘zak esa **gelecek (kelajak)** bo‘ladi. Ikkinchi gapda *gelecek* – *fe’l*, o‘zak esa **gel-(mek) (kelmoq)**. Yuqoridagi fikr mulohazalardan, POS teglash jarayoni stemmingda muhim rol ekanligini qayd etish mumkin.

Uyg‘ur tilida ham xuddi shunga o‘xshash holatni kuzatishimiz mumkin. Masalan *alma* so‘zi olma mevasi ma‘nosida olma shaklida stemmlash, *ol-ma* fe’l sifatida esa olmoq shaklida stemmlanadi. Stemmlashda so‘z shakllardagi POS teglashdagi farqni kelgüsi so‘zida ham kuzatish mumkin.

1. Kelgüsi ishimni planladim. (Kelajak ishlarimni reja qildim.)

2. Bala ete kelgüsi. (Bola ertaga keladi.)

Birinchi gapda *kelgüsi* – sifat, o‘zak esa kelgüsi (kelajak) bo‘ladi. Ikkinchi gapda *kelgüsi* – kelasi zamon shaklidagi fe’l, o‘zak esa kel-(mek) (kelmoq) shaklidadir.

O‘zbek tilida o‘zak va qo‘shimchaning bitta o‘zak bilan omonim bo‘lishi va POS teglash, stemmini aniqlashdagi murakkabliklarni ko‘plab misollarda ko'rish mumkin. Misol uchun, *tortma, olma, yozma, o‘sma* va hokazo so‘zshakllarda. Bu so‘zlar tortma – tort-(moq), olma-ol-(moq), yozma-yoz-(moq), o‘sma-o‘s-(moq) stemmlari shaklida bo‘lib, POS tegi ot va fe’l deb belgilanadi. Masalan:

1. *Sen bozordan kitob olma.*

2. Akbar kecha olma yedi.

Bu yerda birinchi gapda *olma* – inkor ma‘nosidagi fe’l, o‘zak ol-(moq) shaklida bo‘lsa, ikkinchi gapda *olma* – ot, o‘zak ham olma

bo‘ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan bilish mumkinki, uchala turkiy tilda ham o‘zak va qo‘shimchaning bitta o‘zak bilan omonim bo‘lishi holati uchraydi va bu vaziyatda POS teglash jarayoni stemmingda muhim rol ekanligini qayd etish mumkin.

So‘zning tovush o‘zgarishiga uchrashi

Shakl yasovchi qo‘shimchalarni o‘zakning oxirgi harflariga qo‘shish naijasida ba‘zi hollarda so‘zda fonetik o‘zgarishlar (insertion, deletion, phonetic harmony, and assimilation) yuzaga kelishi mumkin [Tsygankin, Ivanova 2019; Mirtojiyev 2013]. Agglutinativ tillarda so‘zda *tovush ortishi, tushishi* va *almashinishi* (weaking, assimilation) kabi uch xil fonetik o‘zgarishlar amalga oshirilishi mumkin *(5-jadval)*.

5-jadval. Agglyutinativ tillarida stemming jarayonidagi kamchiliklar.

O'zbek		Turk		Uyg'ur	
to‘g‘ri	**xato**	**to‘g‘ri**	**xato**	**to‘g‘ri**	**xato**
lavozim+ida	boshlig‘+i	yara+landi-g'ini	ögre-nlere	yoğ+an	binay+im
ish+lagan	san+aydi	belirt+ti	jandar+ma-lig'ini	eshek+-medeği	oghl+um
hafta+larida	tarog‘+ini	ara+sinda	rastla+diği	chaplish+ivalidu	yot+im
bo‘lim+i	me+ning	koşul+lar-da	iznin+e	bash+lapti	yurag+im
hokim+ining	obro'y+imiz	gösteri+ci-nin	geti+riliyor	dep+ti	shahr+im
ish+lagan	achch+iq	belir+li		ini+sinin	



4-rasm. So‘zda tovush ortishi.



5-rasm. So‘zda tovush tushishi.

6-rasm. So‘zda tovush almashinishi.

Stemni aniqlashdagi tovush o‘zgarishiga uchrashi muammosini hal qilish uchun, birinchi bosqichda o‘zak va qo‘shimchalarning chegaralari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa lemmatizatsiya amalga oshiriladi. Lemmatizatsiya natijasida xato hosil qilingan stemlar lug‘atda mavjud root (o‘zak)ga o‘zgartiriladi.

Neologizm va NERlarni stemmlash

NERlarni stemlash muammolari

-lik qo‘shimchasi, asosan ot, sifat va ravish turkumiga oid so‘zlardan ot yasaydi. Ot turkumiga oid leksemalardan yasalgan so‘zlar yasovchi asos anglatgan narsa-predmetning xususiyati bilan bog‘liq holda turli ma’nolarni bildiradi:

1) shaxs (inson) bildiradigan so‘zlardan yasalganda: qarindoshlik, (*otalik, onalik, tog‘alik, o‘g‘illik, farzandlik, erlik, xotinlik*); umrning ma’lum davrini bildiradigan so‘zdan yasalgan otlar (*bolalik, yigitlik, qizlik, o‘smirlik, kelinlik, kuyovlik*); kasb, amal-unvon egasini anglatuvchi so‘zlardan yasalgan otlar (*mudirlik, o‘qituvchilik, qassoblik, chorvadorlik, tabiblik, suvchilik, sartaroshlik, savdogarlik, rassomlik, shofyorlik, aktyorlik*);

2) asosdan anglashilgan narsa ishg‘ol etgan obyektni bildiruvchi ot (*botqoqlik, qumlik, muzlik*);

3) yer sathining yasovchi asosdan anglashilgan qismini bildiruvchi ot (*jarlik, do‘nglik, qiyalik, pastlik, ichkarilik, yalanglik*).

Sifat va ravishlarga qo‘shilib, belgi oti yasaydi: *qizillik, semizlik, xursandlik, aniqlik.* Bu kabi holatlarda ularning tarkibidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar kesiladi, qolgan qism stem sanaladi.

Ammo joy nomini bildiruvchi atoqli otlarga –***lik*** qo‘shimchasi qo‘shilganda, ular turdosh otga aylanadi va kichik harf bilan yoziladi: *samarqandlik, buxorolik, amerikalik, o‘zbekistonlik, turkiyalik, arabistonlik.* Bunday holatda –***lik*** qo‘shimchasi kesiladi, qolgan qism stem deb tushuniladi, bosh harfga aylantirilib, NER sifatida tan olinadi.

samarqandlik = Samarqand~~lik~~

amerikalik = Amerika~~lik~~

kanadalik = Kanada~~lik~~

NERlarning stemini topish muammosi yuzaga kelganda shakl yasovchilar kesiladi, so‘z yasovchi shaklidagi qo‘shimcha yoki so‘zning qismi qoldiriladi, shu qism NER sanaladi: O‘*zbekistondan* so‘zshaklining stemi O‘*zbekiston*.

Shunday qo‘shimchalar borki, ular so‘z yasovchi va shakl yasovchi vazifasida keladi (6-jadval).

6-jadval. So‘z yasovchi va shakl yasovchi omonim qo‘shimchalar.

Shakl yasovchi va so‘z yasovchi qo‘shimchalar		
-ay	-k	-chak
-gi	-ka	-chiq
-da	-kin	-choq
-i	-la	-qa
-in	-lab	-qin
-im	-m	-sa
-ir	-ma	-siz
-iq	-moq	-xon
-y	-cha	

Bunday qo‘shimchalar bosh harf bilan yozilgan so‘zlarning tarkibida kelganda, shakl yasovchilar va so‘z yasovchilar tarkibida bo‘lsa, so‘z shakl tarkibida qoldiriladi va shu shaklida stem deb olinadi. Masalan, *Jon Kennedi* so‘zning tarkibida ***–i*** harfi bor. Dastur o‘zakni bilmaganligi sababli, ya’ni mazkur so‘z o‘zbek tili lug‘atida mavjud emasligi sababli o‘zakni ajratolmay qoladi, natijada **–i** qo‘shimchasini kesib, ***Kenned*** so‘zini o‘zak deb olishi

mumkin. Bunday holatdan qochish maqsadida shakl yasovchi va so‘z yasovchilar orasida omonimiya hosil qiluvchi qo‘shimcha bilan shakldosh bo‘lgan har qanday birlik so‘zshakl tarkibida qoldiriladi.

Neologizmlarni stemlash muammolari

Neologizm yun. “neos” — yangi, “logos” — so‘z — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo‘lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o‘tgach, ular “yangilik” xususiyatini yo‘qotib, odatda, faol so‘zlar qatoriga o‘tadi.

Neologizmning shakliy neologizm, semantik neologizm, funksional neologizm, ijtimoy neologizm, texnologik neologizm, stilistik neologizm kabi turlari mavjud. Ularning turi haqida quyidagi 7-jadvalda batafsil ma’lumot beriladi [Qo‘ziboyeva 2022].

7-jadval. Neologizm turlari.

Misol	Ta’rif	Turi
Popemobil	Rim papasini tashib yurish uchun maxsus ishlab chiqilgan avtomobilning norasmiy nomi	Shakliy
Kopirayting	Reklama yoki marketing maqsadida matnni yozish jarayoni.	Semantik
Qidiruv tizimi	Kompyuterda, kompyuter tarmog‘ida yoki butunjahon web tarmog‘ida World Wide Web saqlanayotgan ma’lumotlarni qidirishga mo‘ljallangan dastur	Semantik
Tırtıl	Kunduzi va tungi kapalaklarning lichinkasi	Funksional
Shizofrenik	Shizofreniya kasalligi bilan og‘rigan bemor	Stilistik
Kibermakon	Kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydoni	Texnologik

Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash yo‘li, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma’nolaridan birini yangi ma’noda qo‘llash yo‘li bilan va boshqa tildan so‘z qabul qilish orqali hosil qilinadi.

Neologizmlar tarkibida –izm (neologism**),** -ik (dalton**ik),** -la (gugl**la**sh) kabi qo‘shimchalar uchraydi.

Neologizmlar lug‘atda mavjud bo‘lmaganligi sababli ularni stemlashda muammolar yuzaga chiqadi. Ularning tarkibidagi qo‘shimchalar, so‘zning bir qismining qo‘shimchaga o‘xshab qolishi muammolari shular shumlasidan. Bunday holatda shakl yasovchi qo‘shimchalar bazasida mavjud qo‘shimchalar kesiladi. Qolgan qism stemga teng keladi. O‘zbek tilidagi neologizmlar va NERlarga mos

stem yuqoridagi 2-rasmda keltirilgan turk va uyg‘ur tillaridagi stem ta’rifiga mos keladi.

Neologizmlar keng jamoatchilik tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida faol qo‘llanib og‘zaki va yozma nutqqa ko‘chganda tilning leksik boyligi sifatida rasman e’tirof etilishi, ya’ni lug‘atga kiritilishi mumkin. Bu jarayondan so‘ng ularni stemlash lug‘atdagi so‘zlarni stemlash qoidasi asosida amalga oshiriladi.

Muammoning o‘rganilishi

Avvalo POS teglash va stemming vazifasini ikki alohida vazifa sifatida mustaqil ravishda ko‘rib chiqamiz. So‘ngra, POS teglash vazifasini morfologik segmentatsiya kabi boshqa vazifalar bilan birlashtirgan POS tegining qo‘shma modellarini ko‘rib chiqamiz.

POS teglashga oid tadqiqotlar

Korpus matnlarini POS teglash NLPdagi klasterlash muammosi sifatida keng tarqalgan. Brown so‘zlarning sintaktik sinflarini o‘rganish uchun *murakkab iyerarxik klasterlash* algoritmi asosida klasslarga asoslangan **n-gram modelini** taqdim etgan [Brown, Della Pietre, de Souza, 1992]. Tadqiqotda kontekstli ma‘lumotlar n-gramm shaklida kiritilgan bo‘lib, boshlang‘ich holatda har bir so‘z bitta sinfga mansub bo‘ladi. So‘ngra, o‘rtacha minimal yo‘qotishni beradigan har bir klaster juftligi barcha klasterlar bitta klaster ostida birlashtirilgunga qadar umumlashtiriladi. Keyingi qadamda, sintaktik kategoriyalar orasidagi iyerarxiyani ifodalovchi binar daraxt shakllantiriladi.

Schutze har bir so‘zning ikkita chap va ikkita o‘ng qo‘shni so‘zidan olingan so‘z vektorlari tomonidan tuzilgan kontekst matritsasining o‘lchamini kamaytirish uchun **Singular Value Decomposition (SVD)**dan foydalangan [Schütze, 1993]. Keyingi qadamda kontekstli ma‘lumotlardan foydalangan holda so‘zlarni klasterlash uchun Buckshot klasteri qo‘llanilgan [Cutting, Kupiec, Pedersen, Sibun 1992].

Biemann to‘rtta so‘zli kontekst oynalari va eng ko‘p uchraydigan so‘zlarni ishlatib, “Chinese Whispers” grafli klasterlash algoritmini qo‘llagan [Biemann 2006].

Ba‘zi boshqa yondashuvlarda POS teglash amali gapdagi so‘zlarni ketma-ketlikdagi belgilash/teglash muammosi sifatida qaraladi. Bunday turdagi yondashuvlar asosidagi algoritmlarda ko‘p hollarda Yashirin Markov Modeli (Hidden Markov Models, HMMs)dan foydalaniladi.

Merialdo uch sinfdan iborat Markov modelini taqdim et-

gan bo'lib, tadqiqotda korpusdagi o'quv ma'lumotlarining turli o'lchamlari uchun turli parametrlarni baholash usullari taqqoslangan [Merialdo 1994]. Korpus ma'lumotlari uchun nisbiy chastotali trening ishlatilgan va tegsiz ma'lumotlar uchun ***Maksimal ehtimollik (Maximum Likelihood)*** usuli qo'llanilgan.

Banko va Moore har bir so'zni faqat joriy so'z "teg"idan emas, balki oldingi va keyingi so'z "teg"lari (valentlik)ni o'z ichiga olgan uchta qo'shni teg asosida kontekstli HMM teggerini taqdim etadilar [Banko, Moore, 2004]. Ushbu model asosiy HMM bilan solishtirganda ko'proq kontekstli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va samarali natija qaytargan.

Jonson **HMMga asoslangan POS teglash**da ishlatiladigan turli parametrlarni solishtirgan. Shu maqsadda **Expectation Maximization (EM), Variatsion Bayes** va **Gibbs** namunalaridan foydalangan [Haghighi, Klein 2006]. Tadqiqot Gibbs namunasi va variatsion Bayes baholovchisi bilan solishtirganda **EM** algoritmining past samaradorligini ko'rsatib bergan.

Stemmingga oid tadqiqotlar

Zamonaviy stemming algoritmlari odatda uchta sinfga bo'linadi: *qoidaga asoslangan*, *statistik* va *gibrid* algoritmlar (7-rasm). Qoidalarga asoslangan stemmerlar avtomatik bo'lmagan qoidalardan foydalangan holda stemmlarni aniqlashga qaratilgan. *Qoidalarga asoslangan* ommabop stemmerlar sifatida Lovins [Lovins, 1968], Porter [Porter 2006; 2001] va Krovets [Krovetz 2000]larni keltirish mumkin. Qoidalarga asoslangan stemmlash algoritmlari odatda nazorat qilinadi.



7-rasm. Stemming algoritmlarining tasnifi.

Statistik stemmlash algoritmlari stemmlarni o‘rganish uchun statistik usullardan foydalanadi. Xu va Croft [Xu, Croft, 1998], Porter stemmerining [Porter, 2006] kamchiliklarini bartaraf etish uchun tasodifiy yuzaga keladigan statistik so‘zdan foydalanadigan usulni taqdim etishgan. Tasodifiy statistik ma‘lumotlariga asoslanib, ular Porter stemmeri tomonidan yaratilgan sinflar sonini kamaytirish uchun *grafni qismlarga ajratish algoritmini* amalda qo‘llashgan [Porter 2006].

Gibrid stemmlash algoritmlari qoidalarga asoslangan va statistik usullarni yagona tizimga birlashtiradi. Ba‘zi gibrid stemmlash algoritmlari Shrivastava [Manish, Nitin, Bibhuti], Goweder [Goweder Alhami] va Adam [Adam 2010] tomonlaridan ishlab chiqilgan.

Goldsmith [Goldsmith 2001; 2006], minimal tavsif uzunligi (Minimum Description Length, MDL) tamoyiliga asoslangan, nazoratsiz stemming modelini taklif qilgan. Model, asosan morfologik segmentatsiya uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan stemmer sifatida ham foydalanish mumkin. Har bir so‘zdagi segmentatsiya nuqtalari, korpusning umumiy hajmini qisqartirish uchun mo‘ljallangan.

Graflarga asoslangan stemming algoritmi Bacchin tomonidan taklif qilingan [Bacchin, Ferro, Melucci 2002]. Algoritm satr ostilar to‘plamini aniqlash uchun birinchi bosqichda har bir so‘zni barcha mumkin bo‘lgan bo‘linish nuqtalariga ajratadi. Ikkinchi bosqichda satr ostilar to‘plamidan foydalangan holda yo‘naltirilgan graf hosil qilinadi. Nihoyat grafdagi satr ostidagilar chastotasiga qarab prefiks va suffiks ballari hisoblanib, stem aniqlanadi.

Melucci va Orio **HMM asosidagi stemmer**ni taqdim etadilar [Melucci, Orio 2003]. HMM holatlari prefiks va suffikslarga muvofiq kelib, holatlar orasidagi o‘tishlar grammatik qoidalarga mos keladi. Parametrlarni baholash uchun **Expectation Maximization (EM)** algoritmidan foydalanilgan. Parametrlar baholangandan so‘ng, maksimal ehtimollikka ega yo‘nalish bo‘yicha segmentatsiya amalga oshirilgan va stem aniqlangan.

McNamee va Mayfield **n-grammlarga asoslangan muqobil stemmlash algoritmi**ni taqdim etishgan [McNamee, Mayfield 2004]. Har bir so‘z uchun korpus asosida barcha bigramma va trigrammalar generatsiya qilingan bo‘lib, o‘xshash so‘zlar n-grammning asosiy qismini tashkil etgan.

Bacchin graflar asosidagi stemmer modelini kengaytirib

[Baschin, Ferro, Melucci 2005], dastlabki qadamda har bir so‘zni barcha pozitsiyalarga bo‘lish orqali mumkin bo‘lgan satr ostilar to‘plami aniqlagan. So‘ngra satr ostilarni ifodalaydigan yo‘nalishli graf shakllantirilgan. Agar *z* so‘zi, *z = xy* ni qanoatlantirsa, *x* va *y* tugunlar orasiga yo‘nalishli qirra hosil qilingan. Affiks ballarini baholash **HITS** algoritmi [Kleinberg, Kumar, Raghavan 1999] asosida hisoblangan. Prefiks va sufiks ballari asosida so‘zlarga tegishli bo‘lgan prefiks va qo‘shimchalar juftlarining ehtimolini maksimal darajaga oshirish orqali eng katta ehtimoliy bo‘linish nuqtasi aniqlangan.

Majumder tomonidan **YASS** (Yet Another Suffix Striper) [Majumder, Mitra, Parui 2007] deb nomlangan stemmlash algoritmi taqdim etilgan bo‘lib, u satrlar orasidagi masofa o‘lchovidan foydalanadigan klasterlash algoritmiga asoslangan. Satrlar orasidagi masofa o‘lchovi so‘zlar orasidagi morfologik o‘xshashlikni baholash uchun ishlatilgan.

So‘zlar orasidagi o‘xshashlikni aniqlashga asoslangan stemmer Peng tomonidan ishlab chiqilgan [Peng, Ahmed, Li, Lu 2007]. Ushbu stemmer qidiruv tizimi natijalarini yaxshilash uchun IR vazifalari uchun qo‘llanilgan va yuqori samaradorlikni bergan.

Paik tomonidan graflarga asoslangan **GRAS** (GRAph-based Stemmer) stemmeri ishlab chiqilgan bo‘lib, u so‘zlarni guruhlash uchun leksik ma‘lumotlardan foydalanadigan statistik stemmer hisoblanadi. Ushbu algoritmda so‘zlar grafning tugunlari sifatida ifodalangan. Algoritm grafni parchalash orqali so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaydi.

Brychcin va Konopik tomonidan taklif etilgan yuqori aniqlikdagi stemmer (High Precision Stemmer, HPS)da imlo va semantik ma‘lumotlardan so‘zlarni o‘zak va qo‘shimchalarga bo‘lish xususiyati sifatida foydalanilgan. Usul ikki bosqichdan iborat:

— *orfografik va semantik jihatdan o‘xshash so‘zlar maksimal o‘zaro ma‘lumot (Maximum Mutual Information, MMI) yordamida klasterlash*;

— *birinchi bosqichdan olingan klasterlar yordamida maksimal entropiya tasniflagichini amalga oshirish.*

Turk tilidagi stemmingni amalga oshirish usuli Köksal tomonidan kiritilgan [Brown, Della Pietra, 1992]. Ushbu usul dastlabki 5-6 harfni o‘zak deb hisoblashga asoslangan. Kut va boshqalar o‘z tadqiqotlarida L-M (Longest Match) nomli usulni ishlab chiqqanlar [Schütze 1993]. So‘z o‘zaklari va ularning mumkin bo‘lgan shakllarini o‘z ichiga olgan lug‘atdan foydalangan holda, usul chap-

dan o‘ngga harflarni lug‘atda joylashgan so‘zlar bilan o‘zak so‘zni taqqoslaydi. Eng uzun mos kelgan so‘z o‘zak hisoblanadi.

Solak va Can [Paice 1994] stemlarni aniqlashda ildizlar lug‘atidan foydalanganlar. Har bir ildiz chapdan o‘ngga stem hosil qilish usullariga mos keladigan 64 xususiyatga ega deb qayd etilgan. Harf birliklari ildiz leksikasiga chapdan o‘ngga tartibda moslashtirilgan va agar mos stem aniqlansa, tizim qo‘shimcha qoidalar asosida mumkin bo‘lgan stemlarni aniqlaydi. **AF algoritmi** deb ataladigan ushbu tadqiqot, asosan, Oflazer [Banko, Moore 2004] tomonidan ishlab chiqilgan morfologik tahlil usulining varianti hisoblanadi.

FindStem – bu Sever va Bitirim [Goldwater, Griffiths 2007] tomonidan ishlab chiqilgan stemming usuli bo‘lib, asosan uchta amalni o‘z ichiga oladi: *ildizni aniqlash, o‘zakni morfologik tahlil qilish* va *aniqlash*. Usul so‘zlarning morfologik va POS xususiyatlarini, sintaktik qoidalarini o‘z ichiga olgan lug‘atdan foydalanadi. Sever va Bitirimning ta‘kidlashicha, FindStem algoritmi AF va L-M algoritmlariga qaraganda yaxshiroq va samaraliroq ishlaydi.

Turk tilidagi so‘zlarning o‘zagini aniqlashga oid boshqa tahliliy usullarga Akin [Cutting, Kupiec, Pedersen, Sibun 1992] tomonidan ishlab chiqilgan **“zemberek”** va Childen [Haghighe, Klein 2006] tomonidan ishlab chiqilgan **“snowball”** algoritmlarini keltirish mumkin. Shuningdek, Dincher [Merialdo, 1994] o‘zak va qo‘shimchalar orasidagi chegarani n-gramm statistikasidan foydalangan holda hal qilish usulini taklif qilgan. Ushbu tadqiqot amaliyotga qo‘llanilishi natijasida samaradorlik 95,8% ni tashkil qilgan.

Batuer Aisha va Maoshistal Sun statistik yondashuvga asoslangan tokenizatsiya ishlab chiqdilar [Aisha, Sun 2009]. Ushbu tokenizatsiya **UC uyg‘ur tili denoted korpusi** ustiga qurilgan. UC korpusi **594172 ta** uyg‘ur tili so‘zlari va UC ikkita korpusdan tashkil topgan, ya‘ni UCS denoted qo‘lda **stemlangan** va **lemmalangan** korpusi. Keyinchalik uyg‘ur tili tokenizatsiyasi uchun ikki bosqichli jarayondan foydalandilar.

Aishan Vumaier va boshqa tadqiqotchilar 2009-yilda yangi uyg‘ur tili ot so‘z turkumi stemming usulni ishlab chiqdilar [Maimaiti, Wumair 2017]. Uyg‘ur ot so‘z turkumi stemming usulini 2 bosqichda amalga oshirdilar:

— Uyg‘ur tili **FSM** qo‘shimchalari yordamida;

— Uyg‘ur tili **FSM** qo‘shimchalari bilan yuzaga kelgan noaniqliklarni bartaraf qilish uchun **CRF** metodi yordamida.

Birinchi bosqichda, uyg‘ur tili ot so‘z turkumi stemming jarayonini FSM ot qo‘shimchalari yordamida ishlab chiqdilar. Stemming jarayoni 55625 kiritilgan so‘z ustida amalga oshirilib, natijada 6239 noto‘g‘ri over stemming keltiruvchi so‘zlar aniqlandi. Ikkinchi bosqichda, stemming jarayonida yuzaga kelgan noaniqliklarni CRF metodi yordamida aniqlab, 55125 ta so‘zli korpus qurildi. Korpus 17317 ta noaniq qo‘shimchali so‘zlar, 6239 ta correctsiz qo‘shimchalar va 11078 ta correct qo‘shim- chali so‘zlardan tashkil topgan. Algoritm natijasi shuni ko‘rsatadiku, jarayonda FSM qo‘shimchalaridan foydalanilsa eslatma (recall rate) 88.78%ni, FSM va CRFdan foydalanilsa eslatma (recall rate) 94,04% aniqlikka erishildi. Xulosa shuki, CRF usulidan foydalanish qayta tiklash stavkasini 5,26% yaxshilaydi.

2012-yilda Azragul, Qixiangjwei va Yusupulla Uyg‘ur tili stemmerini ishlab chiqdilar [Azragul, Qi, Yusup 2012]. Ular lug‘atga asoslangan usuldan foydalanganlar. Algoritm ishlash jarayonida kiritilgan so‘z stem lug‘atidan qidiriladi. Bunda, qo‘shimchalar lug‘ati yordamida so‘z ajratiladi va qo‘shimchalarni o‘chirish bilan ajratilgan so‘z nomzod so‘zi lug‘atdan izlanadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oldingi tadqiqotlarda to‘liq bo‘lmagan lug‘atdan (ochiq lug‘at) foydalanilgan va stemming natijasida hosil bo‘lgan noaniqliklar keyinchalik boshqa usullar orqali hal qilingan.

Pos teglash va stemmlarni aniqlash modellari

NLP sohasi olimlarini agglyutinativ tillarda lug‘at cheklanmagan degan fikrga kelishgan. Ya‘ni, *yangi so‘zlar*, *yangi atamalar* yoki *neologizmlar* madaniy almashinuv orqali tilga doimiy kirib keladi. Yangi so‘zlar mavjud ildizga tegishli qo‘shimchalarni birlashtirish orqali hosil bo‘ladi. Tildagi ildiz va qo‘shimchalar vaqt o‘tishi bilan juda sekin o‘zgaradi va ularni turg‘un deb hisoblash mumkin. Ildiz va qo‘shimchalarning cheksiz ko‘p mumkin bo‘lgan birikmalari lug‘atning doimiy kengayishiga olib keladi. Xulosa sifatida lug‘atdan foydalanadigan usullardan foydalanish bir qator murakkabliklarni yuzaga keltirishini qayd etish lozim.

O‘zbek tilidagi so‘zlarni stemmlash va POS teglash uchun N.Bölücü va B.Can modelidan foydalanamiz [Bölücü, Can 2019]. Tadqiqotda ushbu modelni asosiy model sifatida qabul qilamiz va ba‘zi o‘zgartirishlarni amalga oshiramiz. Maqolada ishlatiladigan atamalarning qisqacha tavsifi:

– **w = s + m** – *so‘zning segmentatsiyasi;*

bu yerda ***s*** *– stem va* ***m*** *–* ***w*** *so‘zining qo‘shimcha(lar)si;*

– $\mathbf{t_i}$, $\mathbf{w_i}$, $\mathbf{s_i}$, $\mathbf{m_i}$ – *korpusdagi* ***i*** *ning mos ravishda teg‘i, so‘zi, stemi va qo‘shimchasi;*

– **I(.)** – *identifikator funksiyasi bo‘lib, agar argumenti* ***true*** *bo‘lsa* ***1*** *ni,* ***false*** *bo‘lsa* ***0*** *ni qaytaradi;*

– $\boldsymbol{n(t_i, w_i)}$ – (t_i, w_i) *so‘zlar juftligining chastotasi;*

– $\boldsymbol{n(t_i, s_i)}$– (t_i, s_i) *stemlar juftligining chastotasi;*

– $\boldsymbol{n(t_i, m_i)}$–(t_i, m_i) *qo‘shimchalar juftligining chastotasi;*

– $\boldsymbol{cos(s_i, w_i)}$ –(s_i, w_i)*so‘zlar o‘rtasidagi kosinus o‘xshashlik;*

– $\boldsymbol{n(t_{i-2}, t_{i-1})}$ – $<t_{i-2}, t_{i-1}>$ *teglar bigrammasi chastotasi;*

– $\boldsymbol{n(m_{i-2}, m_{i-1})}$ –$<m_{i-2}, m_{i-1}>$*qo‘shimchalar bigrammasi chastotasi;*

– $\boldsymbol{n(t_{i-2}, t_{i-1}, t_i)}$ –$<t_{i-2}, t_{i-1}, t_i>$ *teglar trigrammasi chastotasi;*

– $\boldsymbol{n(m_{i-2}, m_{i-1}, m_i)}$ – $<m_{i-2}, m_{i-1}, m_i>$ *qo‘shimchalar trigrammasi chastotasi;*

– $\boldsymbol{t_{-i}}$ – t_{-i} *dan tashqari barcha teglarning joriy qiymatlari;*

– $\boldsymbol{w_{-i}}$) – w_{-i} *dan tashqari barcha so‘zlarning joriy qiymatlari;*

– $\boldsymbol{s_{-i}}$– s_{-i} *dan tashqari barcha stemlarning joriy qiymatlari;*

– $\boldsymbol{m_{-i}}$– m_{-i} *dan tashqari barcha qo‘shimchalarning joriy qiymatlari,*

– $\mathbf{W_{ti}}$, $\boldsymbol{S_{ti}}$ va $\mathbf{M_{ti}}$ – *mos ravishda* t_i *dan hosil bo‘lgan so‘z, stem va qo‘shimcha turlarining umumiy soni;*

– ***T*** *– teg to‘plamining hajmi;*

– $\boldsymbol{M(\varpi^t)}$ – $\boldsymbol{\varpi^t}$ *parametrlarni o‘z ichiga olgan Multinomial taqsimoti shaklidagi emissiya taqsimoti;*

– $\mathbf{Mult(\tau^{(t,t')})}$ – $\boldsymbol{\tau^{(t,t')}}$ *parametrli tranzit taqsimot;*

– $\mathbf{Mult(\psi^{(t)})}$– $\boldsymbol{\psi^{(t)}}$ *parametrlarni o‘z ichiga olgan Multinomial taqsimoti shaklidagi qo‘shimchalar taqsimoti;*

– $\boldsymbol{\varpi^t}$ – $\boldsymbol{\beta}$ giperparametrdan iborat *;* ***Dirichlet(β);***

– $\boldsymbol{\varpi^t}$ –$\boldsymbol{\beta}$ giperparametrdan iborat *;* ***Dirichlet(β);***

– $\boldsymbol{\tau^{(t,t')}}$ –$\boldsymbol{\alpha}$ giperparametrdan iborat *;* ***Dirichlet(α);***

– $\boldsymbol{\psi^{(t)}}$– $\boldsymbol{\psi}$ giperparametrdan iborat *.* ***Dirichlet(ψ).***

Matematik model tavsifi

Goldwater va Griffiths so‘zga asoslangan Bayes HMM modelini taklif qiladilar. Ular standart HMM modeli parametrlariga avvalgi taqsimotlarni qo‘shib, parametrlarning nuqtaviy baholarini emas, balki Bayes sozlamalarida parametrlarning taqsimlanishini o‘rganish orqali kengaytirishgan. POS teglar va stemmlarni birgalikda aniqlash uchun Bayes HMM bazaviy modelini kengaytirish lozim. Shu maqsadda biz ma‘lumotlardagi turli bog‘liqliklarni qabul qilib, turli versiyalarni taklif qilamiz.



8-rasm. Stemga asoslangan Bayes HMM diagrammasi

Stemga asoslangan Bayes HMM (Bayesian S-HMM)

Agglyutinativ (turk) tildagi so‘z tarkibi 2-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, so‘z stemi so‘zdan flektiv qo‘shimchalarni olib tashlash orqali hosil qilinadi. Bu esa so‘z va uning stemi bir xil POS tegga ega bo‘lishi kerak degan qoidadir. So‘zning POS tegi uning stemi uchun ahamiyatli ko‘rsatkichdir. Misol uchun, *gelecek* ot so‘z turkumiga mansub bo‘lsa, *-ecek* qo‘shimchasini olib tashlash xato hisoblanadi. Agar *gelecek* fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lsa, *-ecek* qo‘shimchasini olib tashlash to‘g‘ri bo‘ladi, chunki bu holda *-ecek* fleksiyon qo‘shimcha hisoblanadi. Shuningdek, agglyutinativ tillarda stemlardan foydalanish emissiya siyrakligini kamaytiradi. Shunday qilib, stem emissiyalari bilan so‘zga asoslangan HMM modelini kengaytiramiz. Buning matematik modeli quyidagicha shakllantiriladi:

$$t_i|t_{(i-1)},t_{(i-2)} = t', \tau^{(t,t')} \propto Mult(\tau^{(t,t')})$$

$$s_i|t_i = t, \varpi^t \propto Mult(\varpi^{(t)})$$

$$\tau^{(t,t')}|\alpha \propto Dirichlet(\alpha)$$

$$\varpi^{(t)}|\beta \propto Dirichlet(\beta)$$

Bizning modeldagi $Mult(\varpi^{(t)})$ asosiy modeldan biroz farq qiladi. Bunda parametrga ega Multinomial taqsimot ko‘rinishidagi stem emissiyasi taqsimoti hisoblanadi. Ya‘ni, har bir HMM holatiga mos stem aniqlanadi. Modelning diagrammasi yuqoridagi 8-rasmda keltirilgan. Matematik modelga asoslanib, teg va stemning shartli ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

$$P(t_i|t_{i-1},\alpha) = \frac{n(t_{i-2},t_{i-1},t_i)+\alpha}{n(t_{i-2},t_{i-1})+T\alpha}$$

$$P(s_i|t_{-i},s_{-i},\beta) = \frac{n(t_i,s_i)+\beta}{n(t_i)+S_{t_i}\beta}$$

Quyidagi taqsimot orqali aprior baho hosil qilinadi:

$$P(t,s|\alpha,\beta) \propto P(s|t,\beta)\ P(t,\alpha)$$

Mos stemni aniqlash uchun Gibbs namunalari (Gibbs sampling)dan foydalanamiz. Bunda barcha teglar tasodifiy inisializatsiya qilinadi va barcha so‘zlar stem va qo‘shimchalar sifatida tasodifiy ikkita segmentga ajratiladi. Algoritmning har bir iteratsiyasida quyidagi namunaviy taqsimotdan har bir so‘z uchun teg va stem namunasi olinadi:

$$P(t_i,s_i|t_{-i},s_{-i},\alpha,\beta) = \frac{n(t_i,s_i)\beta}{n(t_i)+S_{t_i}\beta}\cdot\frac{n(t_{i-2},t_{i-1},t_i)+\alpha}{n(t_{i-2},t_{i-1})+T\alpha}$$

$$\cdot\frac{n(t_{i-1},t_i,t_{i+1})+I(t_{i-2}=t_{i-1}=t_i=t_{i+1})+\alpha}{n(t_{i-1},t_i)++I(t_{i-2}=t_{i-1}=t_i)+T\alpha}$$

$$\cdot\frac{n(t_i,t_{i+1},t_{i+2})+I(t_{i-2}=t_i=t_{i+2},t_{i-1}=t_{i+1})+I(t_{i-1}=t_i=t_{i+1}=t_{i+2})+\alpha}{n(t_{i1},t_{i+1})++I(t_{i-2}=t_i,t_{i-1}=t_{i+1})+I(t_{i-1}=t_i=t_{i+1})+T\alpha}$$

Tegni tanlash bir vaqtning o‘zida modeldagi uchta teg trigrammasiga ta’sir qiladi. Chunki har bir teg ketma-ket uchta teg trigrammalarida uchraydi. Shu sababli, o‘zgarishlar identifikatsiya funksiyasi bilan hisobga olinadi. Ushbu jarayon tizim birlashmaguncha takrorlanadi.

Stem va qo‘shimchaga asoslangan Bayes HMM (Bayesian SM-HMM)

So‘zning qo‘shimchasi odatda uning sintaktik kategoriyasi haqida ma’lumot beradi. Misol uchun, ingliz tillarida **-ly** qo‘shimchasi bilan tugagan so‘zlar ravishlar (adverbs) hisoblanadi. Stemga asoslangan (stem-based) Bayes HMM modeliga stem emissiyalariga qo‘shimcha ravishda suffiks emissiyalarini qo‘shamiz:

$$m_i|t_i = t,\psi^{(t)} \propto Mult(\psi^{(t)})$$

$$\psi^{(t)}|\gamma \propto Dirichlet(\gamma)$$



9-rasm. Stemm va qo‘shimchaga asoslangan Bayes HMMning diagrammasi.

Matematik modelga asoslangan holda, suffiksning shartli ehtimolligi quyidagicha aniqlanadi:

$$P(m_i|t_{-i}, m_{-i}, \gamma) = \frac{n(t_i, m_i) + \gamma}{n(t_i) + M_{t_i}\gamma}$$

Stem va teg uchun shartli ehtimollik stemga asoslangan modelda berilgani bilan bir xil hisoblanadi. Quyidagi taqsimotni orqali aprior baho hosil qilinadi:

$$P(t,s,m|\alpha,\beta,\gamma) \propto P(s|t,\beta)\ P(m|t,\gamma)P(t,\alpha)$$

Bu yerda stem va qo‘shimchalar bir-biridan mustaqil deb faraz qilinadi. Mos stemni aniqlash uchun bu holda ham Gibbs namunalari (Gibbs sampling)dan foydalanamiz. So‘z teglari tasodifiy inisializatsiya qilinadi va barcha so‘zlar amal boshida ikkita segmentga tekis ajratiladi. Algoritmning har bir iteratsiyasida quyidagi namunaviy taqsimotdan har bir so‘z uchun *teg, stem* va *qo‘shimchalar* tanlanadi:

$$P(t_i, s_i|t_{-i}, s_{-i}, m_{-i}\alpha, \beta, \gamma) = \frac{n(t_i, s_i)\beta}{n(t_i) + S_{t_i}\beta} \cdot \frac{n(t_{i-2}, t_{i-1}, t_i) + \alpha}{n(t_{i-2}, t_{i-1}) + T\alpha}$$

